

**«MAKTABGACHA TA'LIM KLASTERLARINI
TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY
TENDENSIYALARI: KORIJ TAJRIBASI»**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**

22.11.2023 yil

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI	3
O.X. Xamidov. MAKTABGACHA TA’LIM: MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI.....	3
1 – SEKTOR: MAKTABGACHA TA’LIMDA KLASTERLARNI TASHKIL ETISH: MUAMMO VA YECHIM	5
Azimov Yunus Yusupovich. MAKTABGACHA TA’LIM KLASTERINI TASHKIL ETISHGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR.....	5
Rafiyeva Olima Abduraufovna. MAKTABGACHA TA’LIM — UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMINING POYDEVORI	7
Bozorova Saodat Sobirjonovna. MAKTABGACHA TA’LIM- ERTANGI KUNGA ZAMIN..	10
Бабаева Шоира Баймурадовна. ЭТНОКУЛЬТУРНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭТНОПЕДАГОГИЧЕСКОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.	12
Chudakova Vira Petrovna. A creative approach and foreign experience in implementing the program “Managerial competence of managers in developing the psychological readiness of teachers for innovation activity” and “developing their competitiveness” in the context of improving the management system of preschool education	16
Жумашева Гулнара Хамидуллаевна, Аймбетова Даметкен Максетовна. ИГРА КАК ВЕДУЩАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ	23
Дилова Наргиза Гайбуллаевна, Хакимова Наргиза Супхановна. ОРГАНИЗАЦИЯ КЛАСТЕРОВ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ	27
2 – SEKTOR: MAKTABGACHA TA’LIM VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB INTEGRATSIYASI ISTIQBOLLARI	32
Nizomova Shoxista Shodiyevna. BADIY ADABIYOTNING MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA	32
Shoxista Shodiyevna Nizomova. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLALAR ADABIYOTINI O‘QITISHDA XALQ O‘ZAKI IJODINING O‘RNI.....	33
Hamroyeva Nafisa Nizomiddinovna. KATTA GURUH BOLALARINI TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINING AHAMIYATI	35
Sharipova Maxbuba Baxshilloevna, Fayzulloyeva Zulfizar Nutfillo qizi. MAKTABGACHA TA’LIMDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH FUNKSIYALARI	38
Хамраева Нигора Абдуллаевна. ПРЕДМЕТ И ЗАДАЧИ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ.	40
Shodiyeva Moxiniso Baxodirovna. KICHIK YOSHDAGI BOLALARNI TOVUSHLARINI TALAFFUZ QILISHGA O‘RGATISH.....	42
Shomurodova Dilnura. MAKTABGACHA TA’LIMDA XALQ DOSTONLARNI O‘RGATISHNING MA’NAVIY-MA’RIFIY AHAMIYATI.....	43
Mehriddinova Laylo Mexridin qizi. YOSH AVLODNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA XALQ OG‘ZAKI IJODINING DIDAKTIK AHAMIYATI	46
Sharipova Maxbuba Baxshilloevna. “ALPOMISH” DOSTONIDA NIKOH MAROSIMINING ARXAIK- BADIY XUSUSIYATLARI.....	48
Sharipova Maxbuba Baxshilloevna. “ALPOMISH” EPOSINING QADIMIYLIGI VA AN’ANAVIYLIGI.....	51
Firuz NURULLOYEV, Shonazar G‘AYBULLAYEV. UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIMI SIFATINI INNOVATSION BOSHQARISH MEKANIZMLARI	53
Axmedova Dildora Qudratillayevna. MAKTABGACHA TA’LIM VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB INTEGRATSIYASI ISTIQBOLLARI	55
Saidova Nodira Mustakimovna. “AVESTO” TADQIQIDA RAHIM VOHIDOV MAHORATI	57

salomatlikni saqlashga oid o'g'itlar talqin etiladi. Shu tariqa maqollarni to'g'ri qo'llashga o'rganadilar. Pedagog-tarbiyachi maslahatiga asoslangan tarbiyaviy tadbirda ertak va masallarda qo'llanilgan maqollar yuzasidan suhbatlar o'tkaziladi. Bunda matn so'ngida qissadan- hissa tarzida qo'llanilgan maqollarning tarbiyaviy mazmuni haqida bolalar bilan suhbat-munozara o'tkaziladi.

Xulosa qilib ta'kidlash joizki, ta'lim-tarbiya jarayonida uzluksiz ravishda turli o'quv predmetlari hamda maktabdan tashqari tadbirlarda maqollardan oqilona foydalanish bola tarbiyasida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan maqolning sifati, bolalarning yoshiga mos bo'lishi, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga egaligiga ko'ra saralab olinganligi kabilar ushbu jarayonda o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – T.: Sharq, 2003.
2. Ravlova N. Ilk yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish. – T.: O'qituvchi, 2000.
183
3. Donishmandlar odob-axloq to'g'risida. – T.: O'qituvchi, 1998.

“ALPOMISH” DOSTONIDA NIKOH MAROSIMINING ARXAİK- BAIİY XUSUSIYATLARI

Sharipova Maxbuba Baxshilloevna
Buxoro davlat universiteti
Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Maqolada marosim va doston munosabatlari, marosimlarning arxaik- baiiy ifodasi, uning badiiy-estetik va poetik tafakkuri jo bo'lgan bu lirik merosining badiiy tili nuqtai nazaridan o'rganish xalqimizning milliy madaniyati, yashash tarzi va urf odatlari, qadriyatlarini chuqur anglashda munosib manba sifatida xizmat qilib kelayotgani xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: xalq dostonlari, folklor, folklorshunoslik, ishq-muhabbat, milliy madaniyat, marosim, urf-odat, marosim va doston munosabatlari.

Аннотация: В статье исследование соотношения обряда и эпоса, архаико-художественного выражения обряда, его художественно-эстетического и поэтического мышления с точки зрения художественного языка этого лирического наследия является достойным источником для глубокого понимания национальной культуры, быта и традиций, ценностей нашего народа. Считается, что это послужило

Ключевые слова: народный эпос, фольклор, фольклористика, любовь, национальная культура, обряд, традиция, соотношение обряда и эпоса.

Abstract: In the article, the study of the relationship between ritual and epic, the archaic-artistic expression of the ritual, its artistic, aesthetic and poetic thinking from the point of view of the artistic language of this lyrical heritage is a worthy source for a deep understanding of the national culture, life and traditions, the values of our people. It is believed that what did it do

Key words: folk epic, folklore, folkloristics, love, national culture, ritual, tradition, relationship between ritual and epic.

O'zbekiston tarixan olib qaraganda juda ham qadimiy davlatlar qatoridan joy oladi. Uning bu ko'hnaligi nafaqat moddiy balki, madaniy qadriyatlarda ham o'z ifodasini topgan. Bu an'ana hamda udumlarimiz etnograf olimlar, tarixchilar va sayohatchilar o'z asar va kundaliklarida ko'plab ma'lumotlar keltirib o'tganlar. Bunga misol qilib Rui Gonsales de Klavixoning "Kundalik" hamda Xerman Vamberining "Sayohatnoma" asarlarini keltirib o'tishimiz mumkin. Shuningdek, K.Shoniyozov ilmiy nazariy asarlarida o'zbek xalqining etnik tarixi, moddiy va

ma'naviy hayoti xususan, to'y marosimlari to'g'isida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan, Muallif o'zbek nikoh to'yining barcha jarayonlariga: sovchilik, fotiha, bevosita nikoh to'yi urf-odatlariga va to'ydan keyin o'tkaziladigan udumlarga alohida e'tibor qaratadi. Dunyo folklorshunosligining Amerika, Germaniya, Rossiya, Koreya, Turkiya kabi yirik ilmiy markazlarida ham "Alpomish" dostoni yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan. Ular ko'pincha ushbu dostonning versiya va variantlari, ularni qiyosiy o'rganishga qaratilgan. Shuningdek, dostonning rus, nemis, ingliz, turk tillariga tarjimalarini amalga oshirishda H.Paksoy, S.Baura, L.Penkovski, Karl Rayxl, Oysu Shimshek va Oynur Oz xizmatlari katta bo'ldi.

O'zbek folklorshunosligida "Alpomish"ning versiya va variantlari, doston sujeti, motivlar silsilasi, obrazlari, ijro xususiyatlari, baxshilar repertuaridagi o'rni xususida H.T.Zarifov, M.Afzalov, Maqsud Shayxzoda, N.Shukurov, M.Saidov, M.Murodov, T.Mirzayev, O.Sobirov, G'.Musina, M.Qo'shmoqov, T.G'oziboyev, S.Yo'ldosheva, I.Yormatov, A.Ergashev, O.Madayev, M.Jo'rayev, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov, N.G.Allamberganova izlanishlari alohida e'tiborga molik.

"Alpomish" dostoniga bag'ishlab xalqaro konferensiyalar o'tkazilib, materiallari to'plam holida chop etib kelinmoqda. T.Mirzayev, J.Eshonqulov, Selami Fidokor tomonidan doston lug'ati tuzildi. "Alpomish" dostoni "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" 100-jildligining 1-jildiga kiritildi.

Bizga ma'lumki, nikoh – Alloh taoloning insoniyat orasida joriy qilingan muqaddas qonunlaridan biri bo'lib, nasl-nasabning davomiyligi, insonlar orasida qarindosh-urug'chilik, mehr-oqibatni mukammal bo'lishi kabi insoniyat uchun manfaatli maqsadlarga xizmat qiladi.

Nikoh tahdidiga uchragan qiz (ayol) obrazi va uning taqdiri masalasi jahon eposchiligiga ham xosdir. Aynan buning yorqin dalilini yunon rapsodi Gomerning "Odissey" dostonida Odisseyning xotini go'zal va oqila Penelopa taqdirida kuzatish mumkin. Dostonda Alpomish bilan Qorajon o'rtasidagi do'stlik haqqoniy va hayajonln epizodlarda san'atkorona kuch bilan tasvirlangan, katta insoniy do'stlik darajasiga ko'tarilgan. Shunday qilib, Qorajon obrazida turli el-elatlar orasidagi do'stlik va qardoshlik kuylangan, olijanob insoniy fazilatlar – do'stga sadoqat, va'daga vafo va qat'iylik ulug'langan.

"Alpomish" dostonida nikohning ikki xil tartibi ifoda etilgan:

1. **Nikohning ekzogamik va endogamik tartibi mavjud.** *Ekzogamiya* (qadimgi yunoncha εξω, exo – tashqarida, + γάμος / gamos) – begona bilan nikohlanish ma'nosini bildiradi. Ammo "Alpomish" dostonida nikohning endogamiya turi tasviri keltirilgan. *Endogamiya* (qadimgi yunoncha endo – ichkarida, + γάμος / gamos) – yaqin qarindoshlar, urug'doshlar, nasl-nasab, fratriyalar yoki mahalliy jamoa a'zolari o'rtasidagi nikoh munosabatlarini anglatadi. "Alpomish" dostonida bu 14 yoshli Alpomishning dastlab amakisining qizi bo'lgan Barchinga uylanishni xohlamasligi, biroq keyin rozi bo'lishi va u bilan nikohlanishi, farzandli bo'lib, nasl-nasabini davom ettirishi misolida talqin qilingan. Dostonda endogam nikoh shakli (qarindoshlar, aka-uka (Boybo'ri bilan Boysari)ning bolalari (Hakimbek va Barchin) orasidagi nikoh asosiy o'rin tutadi. Bu esa tarixiy-etnografik ahamiyatga ega voqea hisoblanadi.

"Alpomish" dostonida kuyovning turli xil sinovlardan o'tishi, kuyov va kelin tomonning alohida-alohida va birgalikda tasvirlanishi doston yaratilgan ijtimoiy davr voqeliklari, sotsial munosabatlar mohiyati bilan bog'liqdir. Aslida hayotda endogamik nikohdan ekzogamiyaga o'tishning uch sababi mavjudligi qayd qilinadi. Bular quyidagilardir: a) qon-qarindoshlar o'rtasidagi nikoh tug'ilajak bolalar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi yoki yana boshqa zararli oqibatlari tufayli undan qochish zarurati; b) ijtimoiy aloqalarni yanada kengaytirish va boshqa jamoalardan qiz olib kelish, ular bilan quda-anda bo'lish hisobiga ular bilan munosabatlarni o'rnatish istagi; v) jamoada, oilada ijtimoiy tinchlikni o'rnatish ehtiyoji.¹

2. **Nikohning matrilokal nikoh tartibi.** **Matrilokal** (lotincha mater – ona va locus – joy degani) nikoh bu – nikohdan so'ng ko'chib o'tish shakllaridan biri sifatida matriarxat davrda paydo bo'lgan.² Matrilokal nikohda er xotinning jamoasiga ko'chib o'tib, ular xotin jamoasida

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Экзогамия>

² <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/matrilokal-nikoh-uz/>

birga yashashgan. Hozir ham kuyovning kelin uyiga kelib ichkuyov sifatida yashashi saqlanib qolgan. Ammo “Alpomish” dostonida nikohning bu turi tasvirlanmagan.

Epos bilan bog‘liq umumiy qonuniyatlarda ko‘proq quyidagilarga amal qilinadi:

1. Xalq hayotiy tajribalari va o‘lmas an‘analarini tasvirlashga epik an‘ana sifatida yondashiladi.

2. Epik idealizatsiyaga muvofiq, tasvirga olingan narsalar ideal tarzda taqdim etiladi.

3. Eposda tavsiflanayotgan yoki obrazlantirilayotgan har bir hodisa epik an‘ana, epik matn tuzish tamoyillariga ko‘ra tipiklik, barqarorlik, takrorlanuvchi (an‘anaviy) tarzda beriladi.

4. Epik hikoya qilishda tasvirlanayotgan yoki tavsiflanayotgan voqea-hodisalar, obrazlar konvensiyaga (dinamik rivojlanishning epik norma shartlariga bo‘ysunadi).

Ushbu qonuniyatlar eposdagi marosim motivlarini etnografik hamda folkloristik tavsiflar asosida o‘rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning tasviri va talqini funksional xususiyatga ega bo‘lib, bizningcha, ikkita vazifa bajarib keladi:

a) xalq marosimlari haqidagi ma‘lumotlarni avloddan-avlodga taqdim qiladi;

b) xalq marosimlarining tuzilishi, maqsadi, mazmun-mohiyati bo‘yicha bilimlarni ongda shakllantirish va umumlashtirishga xizmat etadi.

Bunda marosimlarning tasviri nima natijaga qaratilgani muhim hisoblanadi. U orqali qanday g‘oya ilgari surilayotgani kishini o‘ylantiradi. Shuning uchun eposdagi marosimga munosabat bir necha xilda kechada:

a) tarbiyaviy o‘git izlash;

b) sujetdagi o‘rni, vaziyati, poetik vazifasini baholash;

v) genezisini, sujetga kiritilish sabab va oqibatiga qiziqish kabi.

Eposdagi marosim sujetdagi o‘rni va mavqeiga ko‘ra ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

a) sujetni harakatga keltiruvchi marosim motivlari;

b) sujetni harakatga keltirmaydigan marosim motivlari;

v) berilgan sujet holatidan tashqarida tavsiflangan marosim motivlari.

B.N.Putilov aytganidek, eposdagi marosim hech qachon shunchaki obyektiv ma‘noga ega bo‘lgan qandaydir neytral harakat sifatida ko‘rinmaydi. U qahramonga yoki uning dushmaniga xizmat qiladi va shunga ko‘ra, ifodada ramziy ma‘noga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, xalq ma‘naviy xazinasidan o‘rin olgan aksariyat dostonlarda ma‘lum bir marosim bilan bog‘liq tasavvur-tushunchalarning izlari saqlanib qolganligi yoki muayyan bir marosimning o‘tkazilishi badiiy tasvirlab berilganligi kuzatiladi. Bu esa doston (epos) va marosim munosabatini, ularning bog‘liq jihatlarini o‘rganishga undaydi. “Alpomish” dostoni badiiy strukturasi shakllantirishda oilaviy-maishiy marosimlarning o‘rniga alohida e‘tibor qaratilgan. Buni dostondagi voqealar bayoni struktural jihatdan bevosita marosimlar mazmuni bilan uyg‘un kelishi to‘liq tasdiqlaydi. Marosim bilan bog‘liq poetik aytimlarning, urf-odat va an‘analarning epos sujetiga singdirilishi ularning avloddan-avlodga o‘tishini ta‘minlash maqsadini ko‘zlagan. Shundan eposlarning marosimlarda ijro etilishi, shu orqali ularning targ‘ibini amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Bu esa eposning marosimdagi o‘rni va vazifasini belgilagan bosh omildir. “Alpomish” dostoni sujetidan juda ko‘p oilaviy-maishiy marosimlar o‘rin olgan, ammo ularning hech biri batafsil tasvirlanmagan. Bundan ularning epos sujetini yuzaga keltirish uchun qo‘llangani ayonlashadi. Doston sujetini to‘liq anglash uchun o‘zbek xalq marosimlarini, urf-odat va an‘analarini yaxshi bilish talab etiladi. Aks holda, doston mazmunini to‘liq anglash iloji bo‘lmaydi. Xalqimiz taqdiri, vatanimiz tarixida yuz bergan muhim voqea-hodisalar, ajdodlarimizning o‘z mustaqilligi, tinch va farovon hayot uchun kurashi haqida hikoya qilishi, o‘z elini qadrlash, go‘zal urf-odatlaru o‘lmas an‘analarga ergashish to‘g‘risida hikoya qiluvchi bu doston yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda bugungi kunda ham muhim amaliy ahamiyat kasb etishi bilan e‘tiborga loyiq.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алпомиш. Достон. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси / Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчилар Х.Зарифов ва Т.Мирзаев. – Т.: Шарқ, 1998. – 400 б.

2. Путилов Б. Эпос и обряд // Фольклор и этнография. – Л.: Наука, 1974. – С.76.
3. Эшонкул Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини. – Т.: Фан, 2011. – Б.93-94
4. Эшонкул Ж. Эпик тафаккур тадрижи. – Т.: Фан, 2006. – Б.5.
5. Саримсоқов Б. Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик. 1-том. – Т.: Фан, 1988. – Б. 144-145.
6. “Ўзбек маросим фольклорини ўрганишнинг янгича тамойиллари” мавзуидаги Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Навоий, 2007. – 220 б.
7. Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004. – 120 б.
8. Uraeva, D. S., Sharipova, M. B., Zaripova, R. I., & Nizomova, S. S. (2020). THE EXPRESSION OF THE NATIONAL TRADITIONS AND BELIEFS IN UZBEK PHRASEOLOGICAL UNITS. *Theoretical & Applied Science*, (6), 469-472.

“ALPOMISH” EPOSINING QADIMIYLIGI VA AN’ANAVIYLIGI

haripova Maxbuba Baxshilloyevna
Buxoro davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasida o’qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Maqolada “Alpomish” eposining qadimiyligi va an’anaviyligi, marosimlarning arxaiik- badiiy ifodasi, uning badiiy-estetik va poetik tafakkuri jo bo’lgan bu lirik merosining badiiy tili nuqtai nazaridan o’rganish xalqimizning milliy madaniyati, yashash tarzi va urf odatlari, qadriyatlarini chuqur anglashda munosib manba sifatida xizmat qilib kelayotgani xususida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: xalq dostonlari, folklor, folklorshunoslik, ishq-muhabbat, milliy madaniyat, marosim, urf-odat, marosim va doston munosabatlari.

Аннотация: В статье изучение древности и традиционности эпоса «Алпомиш», архаико-художественного выражения обрядов, его художественно-эстетического и поэтического мышления с точки зрения художественного языка этого лирического наследия является глубоким исследованием национальной культуры, быта и обычаев нашего народа, думается, служит достойным источником понимания.

Ключевые слова: народный эпос, фольклор, фольклористика, любовь, национальная культура, обряд, традиция, соотношение обряда и эпоса.

Abstract: In the article, the study of the antiquity and traditionality of the epic “Alpomish”, the archaic-artistic expression of rituals, its artistic, aesthetic and poetic thinking from the point of view of the artistic language of this lyrical heritage is a deep study. The national culture, life and customs of our people, I think, serves as a worthy source of understanding.

Key words: folk epic, folklore, folkloristics, love, national culture, ritual, tradition, relationship between ritual and epic.

“Alpomish” dostoni o’zbek xalqi qadimiy qahramonlik eposining yorqin namunalariidan biridir. Unda Alpomishning o’z yaqinlari tinchligi, baxtu saodati yo’lida ko’rsatgan qahramonliklari madh etiladi. Shu bilan birga, ushbu dostonida jamiyat va inson hayoti masalalari o’ziga xos reallikda – qahramonlik va go’zallik haqidagi xalq ideallari doirasida kuylanadi.

“Alpomish” dostoni turkiy xalqlar patriarxat hayotining o’ziga xos poetik ko’zgidir. Bu doston bir qancha turkiy va ularga yaqin yashagan ayrim turkiy bo’lmagan xalqlar orasida juda keng tarqalgan. Uning o’zbek, qoraqalpoq, qozoq, oltoy versiyalari doston holida; tojik, tatar, boshqird, O’rta Osiyo arablari versiyalari ertak va rivoyatlar tarzida mashhurdir. O’rta asr o’g’iz eposining muhim yodgorligi “Kitobi Dada Qo’rqut” tarkibidagi “Bamsi Bayrak” asari o’zining sujeti va kompozitsion qurilishi jihatidan “Alpomish” dostoniga juda ham yaqin turadi.

V.M.Jirmunskiy o’zining “Turk qahramonlik eposi” kitobida Alpomish mazmunidagi asarning qo’ng’iroq, o’g’iz, qipchoq, oltoy versiyalari mavjudligini ko’rsatib o’tadi. “Alpomish”